



O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNING INSTITUTSIONAL OMILLARI - MAKROIQTISODIY OQIBATLAR VA QARSHI KURASHISH MEXANIZMLARI

Kurpayanidi Konstantin

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

ORCID: 0000-0001-8354-1512

antinari@gmail.com

Ashurov Mahammadjon

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti,

Farg'ona davlat texnika universiteti

ORCID: 0000-0001-8294-5910

m.ashurov@fstu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi institutsional bog'liqlik, ularning bozor raqobati, investitsiya muhiti, davlat boshqaruvi sifati va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi korrupsion amaliyotlarning yashirin iqtisodiyot kengayishiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda korrupsiyaga qarshi institutsional siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, huquqiy-institutsional tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida 2017–2025-yillardagi xalqaro reytinglar, 2023–2024-yillardagi korrupsiyaga oid jinoyatlar statistikasi, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Natijalar korrupsiya nafaqat huquqbuzarlik, balki resurslar taqsimoti, budjet xarajatlari samaradorligi, soliq intizomi va yashirin iqtisodiyot hajmiga ta'sir qiluvchi tizimli institutsional omil ekanini ko'rsatadi. Maqolada compliance control, raqamli monitoring, davlat xaridlarida shaffoflikni kuchaytirish, aktivlarni qaytarish va korrupsion risklarni oldindan baholash mexanizmlarini institutsional jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, yashirin iqtisodiyot, institutsional sifat, makroiqtisodiy barqarorlik, davlat boshqaruvi, investitsiya muhiti, raqamli monitoring, "compliance control", aktivlarni qaytarish.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ КОРРУПЦИИ И ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ - МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ И МЕХАНИЗМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ

Курпаяниди Константин

Международный институт пищевых технологий и инженерии

Ашуров Махаммаджон

Международный институт пищевых технологий и инженерии,

Ферганский государственный технический университет

Аннотация. В статье исследуется институциональная взаимосвязь между коррупцией и теневой экономикой в Узбекистане, а также их влияние на рыночную конкуренцию, инвестиционную среду, качество государственного управления и

макроэкономическую устойчивость. Цель исследования состоит в выявлении механизмов воздействия коррупционных практик на расширение теневой экономики и разработке научно обоснованных предложений по совершенствованию институциональной антикоррупционной политики. В исследовании использованы методы системного, сравнительного, экономико-статистического, правового и институционального анализа, а также логического обобщения. Эмпирическую базу исследования составили международные рейтинги за 2017–2025 годы, статистические данные о коррупционных преступлениях за 2023–2024 годы, нормативно-правовые акты и научная литература. Полученные результаты показывают, что коррупция выступает не только формой правонарушения, но и системным институциональным фактором, влияющим на распределение ресурсов, эффективность бюджетных расходов, налоговую дисциплину и масштабы теневой экономики. В статье разработаны практические рекомендации по институциональному совершенствованию механизмов compliance control, цифрового мониторинга, повышения прозрачности государственных закупок, возврата активов и предварительной оценки коррупционных рисков.

Ключевые слова: коррупция, теневая экономика, институциональное качество, макроэкономическая устойчивость, государственное управление, инвестиционная среда, цифровой мониторинг, “compliance control”, возврат активов.

INSTITUTIONAL FACTORS OF CORRUPTION AND THE SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN - MACROECONOMIC CONSEQUENCES AND COUNTERACTION MECHANISMS

Kurpayanidi Konstantin

International Institute of Food Technology and Engineering

Ashurov Mahammadjon

International Institute of Food Technology and Engineering,

Fergana State Technical University

Abstract. This article examines the institutional relationship between corruption and the shadow economy in Uzbekistan, as well as their impact on market competition, the investment climate, the quality of public administration, and macroeconomic stability. The purpose of the study is to identify the mechanisms through which corrupt practices contribute to the expansion of the shadow economy and to develop scientifically grounded proposals for improving institutional anti-corruption policy. The study employs systemic, comparative, economic-statistical, legal-institutional analysis, and logical generalization methods. The empirical basis of the research includes international rankings for 2017–2025, statistical data on corruption-related crimes for 2023–2024, regulatory legal acts, and scholarly literature. The findings indicate that corruption is not merely a legal offence, but a systemic institutional factor affecting resource allocation, the efficiency of public expenditures, tax discipline, and the scale of the shadow economy. The article develops practical recommendations for the institutional improvement of compliance control mechanisms, digital monitoring, transparency in public procurement, asset recovery, and the preliminary assessment of corruption risks.

Keywords: corruption, shadow economy, institutional quality, macroeconomic stability, public administration, investment climate, digital monitoring, compliance control, asset recovery.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotida korrupsiya resurslarning samarali taqsimlanishiga, raqobatning tabiiy mexanizmlariga, investitsiya qarorlarining shaffofligiga va davlat boshqaruvi institutlarining legitimligiga bevosita ta'sir qiluvchi tizimli hodisadir. Korrupsiya faqat mansab vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish shaklida emas, balki institutsional muhitdagi monopol vakolat, hisobdorlikning sustligi, ortiqcha ma'muriy tartibotlar, noshaffof subsidiya

va imtiyozlar hamda davlat xarajatlarining yetarlicha monitoring qilinmasligi orqali ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda liberallashtirish, raqamlashtirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq xalqaro reytinglar va milliy statistik ma'lumotlar korrupsion risklar saqlanib qolayotganini, ayrim yo'nalishlarda esa ularning murakkab iqtisodiy-institutsional shakllarga o'tayotganini ko'rsatadi. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilgi Corruption Perceptions Index reytingida 31 ball bilan 182 mamlakat ichida 124-o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkich 2024-yildagi 32 balldan past bo'lib, islohotlar samaradorligini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Muammoning ilmiy dolzarbligi shundaki, mavjud tadqiqotlarda korrupsiya ko'pincha huquqiy yoki sotsiologik yondashuvda izohlanadi, yashirin iqtisodiyot esa alohida makroiqtisodiy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Holbuki, O'zbekiston sharoitida korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'zaro kuchaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida tahlil qilinishi lozim. Korrupsiya soliq intizomini susaytiradi, norasmiy operatsiyalarni rag'batlantiradi, davlat xarajatlari multiplikatorini pasaytiradi va qonuniy biznesning tranzaksion xarajatlarini oshiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda korrupsiya va yashirin iqtisodiyotning institutsional omillarini tizimlashtirish, ularning makroiqtisodiy oqibatlarini baholash hamda korrupsiyaga qarshi siyosatni "aniqlash va jazolash" modelidan "oldini olish, raqamli monitoring va aktivlarni qaytarish" modeliga o'tkazish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi korrupsiyani O'zbekiston sharoitida yashirin iqtisodiyotning institutsional katalizatori sifatida talqin qilish, korrupsion zararlar dinamikasini makroiqtisodiy resurslar taqsimoti samaradorligi bilan bog'lash hamda korrupsiyaga qarshi siyosatni faqat repressiv mexanizmlar bilan emas, balki oldini olish, raqamli monitoring, risk-audit va aktivlarni qaytarish tizimi orqali kuchaytirish zarurligini asoslashdan iborat.

Maqolada korrupsion jinoyatlar sonining o'sishi ikki xil iqtisodiy talqinga ega ekani ko'rsatiladi: bir tomondan, bu korrupsion amaliyotlar kengayishini anglatishi mumkin; ikkinchi tomondan, aniqlash va nazorat mexanizmlarining faollashganini ham ifodalaydi. Shu bois korrupsiyaga qarshi siyosat samaradorligini baholashda faqat aniqlangan jinoyatlar soni emas, balki yetkazilgan zarar hajmi, qoplangan zarar ulushi, tizimli sabablarning bartaraf etilishi va institutsional risklarning pasayishi asosiy indikator sifatida qo'llanishi kerak.

Adabiyotlar sharhi.

Korrupsiya nazariyasida Klitgaard (1988) tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuv muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, korrupsiya monopol vakolat va diskresion qarorlar hisobdorlik yetishmasligi bilan qo'shilganda kuchayadi. Rose-Ackerman va Palifka (2016) korrupsiyani davlat boshqaruvi sifati, huquq ustuvorligi va iqtisodiy rag'batlar bilan bog'liq institutsional muammo sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvlar korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolash emas, balki institutlar dizaynini o'zgartirish zarurligini asoslaydi.

Mauro (1995) korrupsiyaning investitsiyalar va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini empirik jihatdan asoslagan. Uning tadqiqotida korrupsiya investitsion faollikni pasaytiruvchi, davlat xarajatlarini samarasiz yo'nalishlarga buruvchi va uzoq muddatli o'sish sur'atlarini cheklovchi omil sifatida ko'rsatiladi. Medina va Schneider (2019) yashirin iqtisodiyotning global baholash metodologiyasini rivojlantirib, norasmiy iqtisodiy faoliyat rasmiy sektor bilan murakkab o'zaro aloqada ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi xalqaro tadqiqotlarda korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik ko'proq institutsional sifat, soliq intizomi, tartibga solish yuki va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi orqali izohlanmoqda. World Bank Worldwide Governance

Indicators bazasi boshqaruv samaradorligi, qonun ustuvorligi va korrupsiyani nazorat qilish indikatorlari orqali mamlakatlar kesimida institutsional muhitni taqqoslash imkonini beradi. Bu ko'rsatkichlar korrupsiya va yashirin iqtisodiyotning makroiqtisodiy tahlilida muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Mahalliy va mintaqaviy adabiyotlarda korrupsiya ko'pincha ijtimoiy xavfli hodisa, davlat boshqaruvi samaradorligi va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanadi. Alimov va Isroilov (2020), Ahmedov (2023), Rahmonov (2023) hamda Kurpayanidi (2025) ishlarida korrupsiya, yashirin iqtisodiyot va institutsional islohotlar o'rtasidagi bog'liqlik O'zbekiston iqtisodiyoti kontekstida yoritilgan. Biroq mavjud ishlarning aksariyati tavsifiy xarakterga ega bo'lib, korrupsion zararlari, hududiy nomutanosibliklar va makroiqtisodiy oqibatlar o'rtasidagi tizimli bog'lanishni yetarlicha chuqur ochmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi institutsional iqtisodiyot, korrupsiya nazariyasi va yashirin iqtisodiyot tahlilining integratsiyalashgan yondashuviga asoslanadi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Transparency International CPI ko'rsatkichlari, World Bank Worldwide Governance Indicators ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlari, milliy anti-korrupsiya hisobotlari hamda 2023–2024-yillar bo'yicha korrupsiyaga oid jinoyatlar statistikasi o'rganildi.

2017–2025-yillar davri O'zbekistonda institutsional islohotlar, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish va "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga o'tish bosqichi bilan asoslanadi. Aynan shu davr korrupsiyaga qarshi siyosatning normativ bazasi shakllangan, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik mexanizmlari kengaygan hamda xalqaro reytinglarda O'zbekistonning pozitsiyasi dinamik o'zgarishga uchragan bosqich hisoblanadi.

Tadqiqotda uchta gipoteza ilgari surildi: H1 — institutsional sifatning pastligi korrupsiya xavfini kuchaytiradi va yashirin iqtisodiyot ulushining oshishiga olib keladi; H2 — korrupsiyaga oid jinoyatlar sonining o'sishi har doim korrupsiyaning real ko'payishini emas, balki nazorat va aniqlash mexanizmlarining faollashganini ham aks ettirishi mumkin; H3 — korrupsiya natijasida yetkazilgan zarar hajmining o'sishi budjet resurslarining samaradorligini pasaytiradi va makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Analitik model sifatida korrupsiya — yashirin iqtisodiyot — makroiqtisodiy oqibatlar zanjiri qo'llanildi. Ushbu modelda korrupsiya institutsional sifat, tartibga solish yuki, davlat xarajatlari shaffofligi va huquqni qo'llash sifati orqali yashirin iqtisodiyotga ta'sir qiladi. Yashirin iqtisodiyot esa soliq bazasining torayishi, budjet yo'qotishlari, investitsiya faolligining pasayishi, raqobatning buzilishi va inson kapitali sifatining yomonlashuvi orqali makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval.

Tadqiqot gipotezalari va baholash indikatorlari


Gipoteza	Mazmuni	Empirik indikatorlar
H1	Institutsional sifat pastligi korrupsiya va yashirin iqtisodiyot ulushini oshiradi	CPI, WGI, davlat boshqaruvi shaffofligi, norasmiy sektor baholari
H2	Jinoyatlar sonining o'sishi aniqlash mexanizmlari faollashganini ham bildirishi mumkin	Aniqlangan jinoyatlar soni, javobgarlikka tortilganlar, nazorat organlari faolligi
H3	Korrupsion zararlari budjet samaradorligi va makrobarqarorlikni pasaytiradi	Yetkazilgan zarar, qoplangan zarar ulushi, davlat xarajatlari risklari

Manba: mualliflar tomonidan ilmiy adabiyotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi siyosatning institutsional bazasi bosqichma-bosqich shakllandi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, davlat xaridlari, jamoatchilik nazorati va manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar korrupsion risklarni kamaytirish uchun normativ asos yaratdi. Shu bilan birga, normativ bazaning mavjudligi hali institutsional samaradorlikni to'liq kafolatlamaydi; hal qiluvchi omil uning ijro sifati, monitoring mexanizmlari va jamoatchilik nazoratining real ta'sir kuchidir.

Transparency International reytingi O'zbekistonning korrupsiyani qabul qilish bo'yicha uzoq muddatli yaxshilanishga erishganini, biroq so'nggi ikki yilda pasayish tendensiyasi kuzatilayotganini ko'rsatadi. 2012-yildagi 17 ball bilan taqqoslaganda 2025-yilda 31 ballga erishilishi institutsional islohotlarning ijobiy ta'sirini anglatadi. Biroq 2023-yildagi 33 ballidan 2024-yilda 32 ballga, 2025-yilda esa 31 ballga tushish korrupsiyaga qarshi siyosatning yangi bosqichda murakkabroq tizimli muammolarga duch kelayotganini bildiradi.



1-rasm. O'zbekistonning CPI ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy burilish nuqtalari.

Manba: Transparency International ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

CPI ko'rsatkichining pasayishi korrupsiya darajasi avtomatik ravishda keskin oshganini anglatmaydi, ammo u davlat boshqaruvi shaffofligi, huquq ustuvorligi va korrupsiyani nazorat qilish bo'yicha islohotlar chuqurlashuvini talab qiluvchi institutsional signal sifatida talqin qilinishi kerak. Bu natija H1 gipotezasini qisman tasdiqlaydi: institutsional sifatidagi sustlashuv korrupsion risklar va yashirin iqtisodiyot uchun qulay sharoitni kengaytiradi.

2023–2024-yillar statistikasi korrupsion jarayonlarning sifat jihatidan murakkablashayotganini ko'rsatadi. Korrupsiya jinoyatlari soni 4128 tadan 4649 taga, javobgarlikka tortilganlar 6535 kishidan 7354 kishiga oshgan. Shu bilan birga, yetkazilgan zarar hajmi 1,4 trln so'mdan 2,81 trln so'mga, umumiy zarar esa 1,55 trln so'mdan 3,61 trln so'mga ko'tarilgan. Jinoyatlar soni nisbatan 12,6 foizga oshgan bir paytda zarar hajmining ikki barobardan ko'proq ortishi korrupsiyaning kapital sig'imli va institutsional sxemalarga o'tayotganidan dalolat beradi.


2-jadval.

Korrupsiyaga oid umumiy ko'rsatkichlar dinamikasi

No	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2023	2024	O'zgarish
1	Korrupsiya jinoyati	ta	4128	4649	+12,6%
2	Javobgarlikka tortilganlar	kishi	6535	7354	+12,5%
3	Yetkazilgan zarar	trln so'm	1,4	2,81	≈2 barobar
4	Mansabdor shaxslar	kishi	3575	4906	+37,2%
5	Umumiy zarar	trln so'm	1,55	3,61	≈2,3 barobar
6	Qoplangan zarar	trln so'm / ulush	1,312 / 84,7%	2,343 / 65,0%	ulush -19,7 p.p.

Manba: milliy anti-korrupsiya hisobotlari va ochiq axborot manbalari asosida mualliflar tomonidan tizimlashtirilgan.

2024-yilda korrupsiyaga oid indikatorlarning o'sish sur'atlari



2-rasm. 2023–2024-yillarda korrupsiyaga oid indikatorlar dinamikasi.

Manba: 2-jadval ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

2-jadval shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga oid jinoyatlar va javobgarlikka tortilgan shaxslar sonidagi o'sish bilan solishtirganda yetkazilgan zarar hajmi ancha tez sur'atda ortgan. Bu holat korrupsion faoliyatning mayda maishiy shakllardan budjet mablag'lari, davlat xaridlari, kredit resurslari, qurilish va ijtimoiy sohalardagi murakkab sxemalarga transformatsiyalanayotganini bildiradi. Ayniqsa qoplangan zarar ulushining 84,7 foizdan 65 foizga pasayishi aktivlarni aniqlash, musodara qilish va iqtisodiy aylanmaga qaytarish mexanizmlarida institutsional zaiflik mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar H2 va H3 gipotezalarini tasdiqlaydi. H2 bo'yicha jinoyatlar sonining o'sishi nazorat tizimining faollashganini ham bildirishi mumkin; biroq H3 bo'yicha zarar hajmining tez o'sishi korrupsiyaning makroiqtisodiy oqibatlari chuqurlashayotganini ko'rsatadi. Demak, korrupsiyaga qarshi siyosatni baholashda "ko'p ish ochildi" mezoni yetarli emas; asosiy ko'rsatkich sifatida zararlarining oldini olish, qoplash ulushi, tizimli sabablarning kamayishi va resurslar taqsimoti samaradorligi qo'llanishi lozim.

3-jadval.

Hudud va soha kesimida korrupsion risklar

Hudud	Holatlar soni	Soha	Holatlar soni	O'zgarish
Andijon viloyati	882	Maktabgacha va maktab ta'limi	654	+38,0%
Namangan viloyati	877	Sog'liqni saqlash	342	+14,4%
Toshkent viloyati	697	Banklar	271	-16,1%
Qashqadaryo viloyati	695	Mahalliy hokimiyat organlari	106	-57,6%
Samarqand viloyati	643	Oliy ta'lim	90	-19,6%

Manba: ochiq statistik axborotlar asosida mualliflar tomonidan umumlashtirilgan.

Hududiy tahlil korrupsion risklar mintaqalar bo'yicha bir xil taqsimlanmaganini ko'rsatadi. Andijon va Namangan viloyatlaridagi yuqori ko'rsatkichlar nafaqat korrupsiya darajasi, balki aniqlash mexanizmlarining faolligi, aholining murojaat qilish darajasi va institutsional nazorat sifati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli hududiy ko'rsatkichlar mexanik reyting sifatida emas, balki risklarni chuqur audit qilish uchun indikator sifatida talqin qilinishi kerak.

Sohalar kesimida maktabgacha va maktab ta'limi hamda sog'liqni saqlash tizimlaridagi o'sish alohida xavotir uyg'otadi. Ijtimoiy sohalarda korrupsiya qisqa muddatda budjet mablag'larining samarasiz sarflanishiga, uzoq muddatda esa inson kapitali sifatining pasayishiga olib keladi. Inson kapitali sifati pasayganda innovatsion rivojlanish, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari ham salbiy ta'sirga uchraydi.

Yashirin iqtisodiyot bilan bog'liqlik aynan shu nuqtada kuchayadi. Korrupsiya rasmiy tartibotlarni aylanib o'tish imkonini bersa, norasmiy faoliyat subyektlari qonuniy biznesga nisbatan asossiz xarajat ustunligiga ega bo'ladi. Natijada soliq bazasi torayadi, budjet daromadlari kamayadi, raqobat buziladi va davlatning qayta taqsimlash siyosati samaradorligi pasayadi. Bu jarayon makroiqtisodiy miqyosda "past ishonch — yuqori tranzaksion xarajat — past investitsiya — yashirin aylanma" zanjirini shakllantiradi.

4-jadval.

Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot bog'liqligining makroiqtisodiy oqibatlarini

Institutsional omil	Yashirin iqtisodiyotga ta'sir mexanizmi	Makroiqtisodiy oqibat
Noshaffof davlat xaridlari	Tender shartlarining cheklangan raqobatga moslashtirilishi	Budjet xarajatlari samaradorligi pasayadi, narxlar sun'iy oshadi
Ortiqcha litsenziya va ruxsatnomalar	Rasmiy tartibotlarni aylanib o'tish uchun norasmiy to'lovlar	Tranzaksion xarajatlar oshadi, norasmiy faoliyat rag'batlanadi
Subsidiyalar va imtiyozlarning nooshaffof taqsimlanishi	Tanlangan guruhlar uchun rentaga asoslangan ustunlik	Resurslar optimal taqsimlanmaydi, raqobat buziladi
Aktivlarni qaytarish mexanizmining sustligi	Noqonuniy daromadlarning yashirin kanallarda saqlanishi	Kapital rasmiy iqtisodiy aylanmadan chiqib ketadi
Ijtimoiy sohalardagi korrupsiya	Ta'lim va tibbiyot sifatiga bevosita salbiy ta'sir	Inson kapitali va uzoq muddatli o'sish salohiyati pasayadi

Manba: mualliflar tomonidan tizimli tahlil asosida ishlab chiqilgan.

Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik sabab-oqibat munosabatidan ko'ra murakkabroqdir. Korrupsiya yashirin iqtisodiyot uchun "kirish eshigi" vazifasini bajaradi,

yashirin iqtisodiyot esa korrupsion rentani moliyalashtiruvchi va yashiruvchi muhit yaratadi. Shu bois korrupsiyani kamaytirish soliq nazorati yoki jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bilan cheklanmasligi, balki institutsional rag'batlar tizimini o'zgartirishi kerak.

Davlat xaridlari, qurilish, kredit resurslari va subsidiyalar oqimi korrupsion risklar yuqori bo'lgan yo'nalishlar hisoblanadi. Bu sohalarida korrupsiya ko'pincha bevosita pora shaklida emas, balki texnik shartlarni manipulyatsiya qilish, narxlarni sun'iy oshirish, manfaatlar to'qnashuvini yashirish, subpudrat zanjirlari orqali mablag'larni chiqarish va aktivlarni murakkab mulkchilik tuzilmalari orqali berkitish shaklida namoyon bo'ladi. Bunday mexanizmlar klassik huquqbuzarlikdan ko'ra ko'proq institutsional dizayn muammosidir.

Tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashishning amaldagi yondashuvini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Birinchi navbatda, korrupsiyaga qarshi siyosat natijadorligi jinoyatlar soni, qamoq jazosi yoki tekshiruvlar hajmi bilan emas, balki korrupsion risklarning kamayishi, budjet yo'qotishlarining oldi olinishi, qoplangan zarar ulushi, davlat xizmatlari shaffofligi va qonuniy biznes uchun tranzaksion xarajatlarning pasayishi bilan baholanishi lozim.

Ikkinchidan, korrupsiyaning ijtimoiy sohalarida kuchayishi inson kapitali strategiyasiga bevosita tahdid soladi. Ta'lim va sog'liqni saqlashdagi korrupsion amaliyotlar nafaqat joriy budjet xarajatlarini samarasiz qiladi, balki kelajakdagi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlarini ham pasaytiradi. Shuning uchun ijtimoiy sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish iqtisodiy siyosatning periferik emas, balki markaziy yo'nalishi sifatida qaralishi zarur.

Uchinchidan, raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi samarali vosita bo'lishi mumkin, biroq u o'z-o'zidan yetarli emas. Raqamli platformalar algoritmik shaffoflik, ma'lumotlarning ochiqligi, mustaqil audit, manfaatlar to'qnashuvini avtomatik aniqlash va jamoatchilik monitoringi bilan integratsiyalashgandagina institutsional samaradorlik beradi. Aks holda korrupsion amaliyotlar analog muhitdan raqamli muhitga ko'chishi mumkin.

1. Institutsional va qonunchilik islohotlari. Har bir davlat organida mustaqil compliance control tizimini joriy etish, uni OECD standartlariga moslashtirish hamda davlat xaridlari, subsidiyalar, kadrlar siyosati va ruxsat berish tartibotlari bo'yicha choraklik risk-audit o'tkazish lozim. Yuqori korrupsion xavf guruhiga kiruvchi sohalarida majburiy deklaratsiyalash va manfaatlar to'qnashuvini avtomatik aniqlash tizimi kuchaytirilishi zarur.

2. Raqamli nazorat va inson omilini cheklash. Davlat xaridlari va budjet mablag'lari harakati bo'yicha ochiq ma'lumotlar paneli, risk indikatorlari va sun'iy intellekt asosidagi anomaliya aniqlash mexanizmlari joriy etilishi kerak. Raqamli nazorat faqat texnologik yechim emas, balki audit, javobgarlik va ochiqlik institutlari bilan birgalikda qo'llanishi lozim.

3. Iqtisodiy va moliyaviy korrupsiyani oldini olish. Kapital sig'imli loyihalar uchun "ochiq komplayens" tizimi, mustaqil auditorlik hamrohligi va jamoatchilikka ochiq risk xaritalari ishlab chiqilishi zarur. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini baholashda "aniqlangan jinoyatlar soni" bilan bir qatorda "qoplangan zarar ulushi", "oldi olingan zarar", "risk darajasining pasayishi" va "tizimli sabablarning bartaraf etilishi" KPI sifatida belgilanishi lozim.

4. Aktivlarni qaytarish tizimini kuchaytirish. Noqonuniy aktivlarni aniqlash, muzlatish va qaytarish bo'yicha xalqaro hamkorlik kengaytirilishi, murakkab mulkchilik zanjirlari bo'yicha benefisiar egalik ma'lumotlari ochiqligi ta'minlanishi zarur. Fuqarolik-huquqiy konfiskatsiya, asossiz boyish institutini takomillashtirish va aktivlarni qaytarish bo'yicha alohida moliyaviy razvedka mexanizmlarini kuchaytirish korrupsiyaning iqtisodiy jozibadorligini pasaytiradi.

5. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish. Kichik biznes uchun rasmiy faoliyat xarajatlarini kamaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, litsenziya va ruxsatnomalar sonini maqbullashtirish hamda elektron to'lovlar infratuzilmasini kengaytirish zarur. Norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish faqat nazorat orqali emas, balki rasmiy faoliyatning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish orqali ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida korrupsiya va yashirin iqtisodiyot o'zaro bog'liq institutsional hodisalar ekanini ko'rsatdi. Korrupsiya davlat boshqaruvi sifatini pasaytiradi, bozor raqobatini buzadi, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va yashirin iqtisodiyot uchun rag'batlantiruvchi muhit yaratadi. Yashirin iqtisodiyot esa korrupsion rentani yashirish, soliq bazasini toraytirish va resurslar taqsimotini buzish orqali korrupsion tizimlarni qayta ishlab chiqaradi.

2023–2024-yillar statistikasi korrupsiya jinoyatlari sonining 12,6 foizga, javobgarlikka tortilganlar sonining 12,5 foizga oshganini, yetkazilgan zarar esa deyarli ikki barobarga ko'payganini ko'rsatdi. Bu natija korrupsiyaning mayda maishiy shakllardan kapital sig'imli va tizimli iqtisodiy sxemalarga o'tayotganidan dalolat beradi. Qoplangan zarar ulushining pasayishi aktivlarni qaytarish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Hududiy va sohaviy tahlil korrupsion risklar ta'lim, sog'liqni saqlash, bank-moliya, mahalliy hokimiyat va yirik budjet oqimlari bilan bog'liq sohalarda alohida e'tibor talab qilishini ko'rsatdi. Ijtimoiy sohalardagi korrupsiya inson kapitali sifatini pasaytiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish salohiyatini cheklaydi.

Gipotezalar bo'yicha H1 qisman, H2 va H3 esa empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlandi. Institutsional sifat korrupsion risklar va yashirin iqtisodiyot hajmiga ta'sir qiladi; jinoyatlar sonining o'sishi nazorat mexanizmlari faollashganini ham bildirishi mumkin; zarar hajmining o'sishi esa budjet samaradorligi va makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita xavf tug'diradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda korrupsiya, yashirin iqtisodiyot, investitsiya faolligi va fiskal ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish, hududlar kesimida risk indeksini ishlab chiqish hamda davlat xaridlari bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasi asosida korrupsion anomalialarni aniqlash algoritmlarini sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Ahmedov, F. (2023). *O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(5), 77–83.

Alimov, G. A., & Isroilov, B. I. (2020). *Tenevaya ekonomika, korrupsiya, vzyatochnichestvo: ugolovno-pravovaya otsenka. Adolat.*

Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan. (2025). *The national anti-corruption report 2024.* <https://aca.uz>

Ashurov, M. S. (2023a). *Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 10, 571–575.

Ashurov, M. S. (2023b). *O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion modelga o'tishining ayrim yo'nalishlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*, 5(3), 93–99.

Boziyeva, Z. A. (2014). *Korrupsiya iqtisodiy xavfsizlikka tahdid omili sifatida. Qirg'iziston Yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasi yo'lida xalqaro konferensiyasi materiallari*, 80.

Enikeev, Sh. I. (2015). *Ekonomicheskaya sushchnost i posledstviya korrupsionnoy deyatelnosti. Dialektika protivodeystviya korrupsii: Materialy V Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii*, 53–58.

Klitgaard, R. (1988). *Controlling corruption.* University of California Press.

Kurpayanidi, K. I. (2025). *Tenevaya gran reform: institutsionalnye vyzovy modernizatsii v Uzbekistane. Vestnik Sibirskogo gosudarstvennogo industrialnogo universiteta*, 3(53), 131–143. [https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3\(53\)-131-143](https://doi.org/10.57070/2304-4497-2025-3(53)-131-143)

Kurpayanidi, K. I. (2026a). *Economic institutions and entrepreneurship: The theoretical-methodological analysis.* LAP Lambert Academic Publishing. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933623>

Kurpayanidi, K. I. (2026b). *Innovation ecosystems and technological entrepreneurship.* LAP Lambert Academic Publishing.

- Lazarev, E. N., & Chekmaev, S. V. (2021). *Korrupsiya kak ugroza ekonomicheskoy bezopasnosti. Rossiya: Tendensii i perspektivy razvitiya*, 16, 190–191.
- Mauro, P. (1995). *Corruption and growth. The Quarterly Journal of Economics*, 110(3), 681–712. <https://doi.org/10.2307/2946696>
- Medina, L., & Schneider, F. (2019). *Shedding light on the shadow economy: A global database and the interaction with the official economy. Journal of International Development*, 31(6), 461–488. <https://doi.org/10.1002/jid.3394>
- Menyshenina, N. N. (2014). *Korrupsiya v Rossiyskoy Federatsii: Genezis, formy, tekhnologii, protivodeystvie*. Ural University Press.
- Naumov, Yu. G. (2014). *Institutsionalnaya korrupsiya v sisteme ekonomicheskikh institutov postsovetskoy Rossii. Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii*, 7, 39–41.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni. (2020). *Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoni. (2021). *Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish chora-tadbirlari*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son Qarori. (2021). *Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-son Qonuni. (2014). *Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son Qonuni. (2017). *Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-son Qonuni. (2018). *Jamoatchilik nazorati to'g'risida*. <https://lex.uz>
- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonuni. (2021). *Davlat xaridlari to'g'risida*. <https://lex.uz>
- OECD. (2019). *Anti-corruption reforms in Uzbekistan: Fourth round of monitoring of the Istanbul Anti-Corruption Action Plan*. OECD Publishing.
- Rahmonov, L. (2023). *O'zbekistonda xufiyona iqtisodiyot ulushini kamaytirishda moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), 189–195.
- Rose-Ackerman, S., & Palifka, B. J. (2016). *Corruption and government: Causes, consequences, and reform (2nd ed.)*. Cambridge University Press.
- Schneider, F., & Enste, D. H. (2013). *The shadow economy: An international survey (2nd ed.)*. Cambridge University Press.
- Suleymanov, S. (2022). *Teoreticheskie osnovy protivostoyaniya prestupnosti na potrebitelskom rynke*. Litres.
- Transparency International. (2026). *Corruption Perceptions Index 2025: Uzbekistan*. <https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan>
- World Bank. (2025). *Worldwide Governance Indicators: Methodology and 2024 update*. World Bank.